
TOSHLOQDA “KEKSALAR HAFTALIGI” KO‘TARINKI RUHDA O‘TMOQDA

Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 26 sentyabrdagi tegishli bayoniga asosan, joriy yilning 3-9 oktyabr kunlari “Keksalarni e‘zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatish - xalqimizga xos ezgu fazilat” g‘oyasi ostida mamlakatimizning barcha hududlarida shu jumladan, Farg‘ona viloyatida “Keksalar haftaligi” o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

“Keksalar haftaligi” doirasida Toshloq tumani mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi tomonidan nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning xolidan xabar olish kabi xayrli ishlar bo‘lib o‘tmoqda.

Bugun Quyiyakkatut MFYda nuroniylar ishtirokida bir piyola choy ustida suhbat tashkil etildi. Bundan tashqari tumandagi mahallalarda istiqomat qilayotgan nuroniylar salomatliklarini tiklash borasida tibbiyot xodimlari uyma-uy yurib, ularga kerakli tibbiy muolajalar ko‘rsatilib, zaruriy dori-darmon vositalari tarqatilmoqda.

2022-10-03 18:27:04